

CHO'LPON HIKOYALARIDA RAMZIYLIK IFODASINING AKS ETISHI**(“Qor qo‘ynida lola” va “Oydin kechalarda” hikoyasi asosida)****To‘lqinova Aziza Akmal qizi**

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi.

Rizonova Mahorat G‘ofur qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20314266>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lpon hikoyalarida ramziylikning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Adibning “Oydin kechalarda” va “Qor qo‘ynida lola” hikoyalarida qo‘llangan ramzlar orqali inson ruhiyati, milliy uyg‘onish, erk va ijtimoiy muammolar yoritib beriladi. Maqolada Cho‘lponning obraz yaratish mahorati, tabiat tasvirlari hamda predmet va hodisalarga yuklangan majoziy ma‘nolar ilmiy-estetik jihatdan o‘rganiladi. Shuningdek, yozuvchi ijodidagi ramziylik o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon hikoyalari, ramziylik, obraz, hikoya, ruhiy kechinma, badiiy tasvir.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное выражение символизма в рассказах Абдулхамид Чолпона. Символы, используемые в рассказах писателя "Oydin kechalarda" и "Qor qo‘ynida lola", освещают человеческую психику, национальное пробуждение, волю и социальные проблемы. В статье изучается мастерство Чолпона в создании образов, образов природы и образных значений, придаваемых предметам и явлениям, с научной и эстетической точки зрения. Также раскрывается роль и значение символизма в творчестве писателя в узбекской литературе.

Ключевые слова: истории Чулпанов, символизм, образ, сюжет, духовный опыт, художественный образ.

Abstract. This article analyzes the artistic expression of symbolism in the stories of Abdulhamid Cholpon. The symbols used in the writer's stories "Oydin kechalarda" and "Qor qo‘ynida lola" illuminate the human psyche, national awakening, will, and social issues. The article examines Cholpon's mastery of imagery, natural imagery, and the figurative meanings attached to objects and phenomena from a scientific and aesthetic perspective. It also explores the role and significance of symbolism in the writer's work in Uzbek literature.

Key words: Chulpanov stories, symbolism, image, plot, spiritual experience, artistic image.

Kirish: Cho‘lpon hikoyalarida yozuvchi ko‘proq badiiy tasvir vositalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalab berishi bilan ajralib turadi. tasvirlash mahoratida qo‘shimcha kiritmalar kam qo‘llaniladi. Mutolaa jarayonida obrazlar tizimidan tortib kichik detallarga qadar sodda va oson badiiy til vositalari qo‘llangan. Cho‘lpon hikoyalarini aksariyat qismi syujet unsurlari bilan tahlil qilinganda tugun bilan boshlanib asar so‘nggida kuliminatsiya bilan tugaydi. Bu jarayon ham bevosita hikoyalarning ta’sirchanligini ochib berishga xizmat qiladi. Cho‘lpon hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyatlari ramziylik va falsafiylikdir. Adib ko‘p hollarda tabiat hodisalari (qor, lola, oydin kecha) orqali ijtimoiy va siyosiy tushunchalarni ramziy ifodalaydi. Ayollar obrazining deyarli barcha hikoyalarida (“Qor qo‘ynida lola”) ayol kishining jamiyatdagi og‘ir qismati va erksizlik fojiasi markaziy o‘rin tutadi. Mavzu ko‘lamida esa ijtimoiy muammolar yoritilgan. [1]

Cho'lpon adabiyot haqida shunday yozadi: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, yarador ko'ngillarga ruh bermak uchun... bizga g'oyat kerakdir" [2, 1994]. Haqiqatan ham Abdulhamid Cho'lpon asarlari inson qalbini poklaydigan, ko'zlarni ochadigan va jamiyatdagi illatlarni fosh etadigan kuchga ega. Uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, bugungi avlod oldidagi eng muhim vazifa bu bebaho adabiy merosni asrash va chuqur o'rganishdan iboratdir. "Do'xtur Muhammadyor" (1914), "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" hikoyalari yangi davr o'zbek nasri rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi.

Xususan, "Qor qo'ynida lola" hikoyasida va "Oydin kechalar" hikoyalari xuddi shunday muammolar ostidagi real hayot yoritib beriladi. Qor qo'ynida lola bir qarashda tabiat tasviriga nisbat beriluvchi kichik hikoyani o'qish jarayonida o'quvchi asar so'nggida xulosaga keladi va sarlavhaning badiiy pafosini his etadi. Asar boshida yosh qizlarning ko'ptok o'yini o'ynashi bilan boshlanadi. Bu esa bevosita hikoyamiz qahramonlarining bolalarga xos tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Hikoyaning kuliminatsion nuqtasi ham shunda.

Bosh plandagi asosiy e'tibor lolaga qaratiladi. Lola tabiatdagi eng nozik va nafis gullardan biri. U bahor, yoshlik, va go'zallik timsoli hisoblanadi. Mana shu vosita orqali bosh obrazimiz Sharofatxonga nisbatlab ko'rsatamiz. Cho'lpon Sharofatni lolaga o'xshatish orqali uning hali ochilib ulgurmagani umrini, orzularini, sof qalbini ko'rsatadi. Aslida gul misoli beg'ubor endigina 17 yoshga qadam qo'ygan qizning taqdirida qishning belgisi qor kabi soqoli oq eshon bir gulni yakson etadi. Yosh qizaloq ko'ptok o'ynab yurgan bir paytda, otasi uning taqdirini sovchilarga rozilik berish orqali hal qilib qo'yadi. Bu qarorning ortida bir necha ijtimoiy va ruhiy sabablar yotadi. (3)

Eshon obrazi soxta "muqaddaslik" ramzi. Hikoyadagi eshon oddiy chol emas. U diniy mutaassiblik, soxta taqvo, xalqni aldov bilan boshqaruvchi kuchlarning ramzi. Cho'lpon uni ataylab: oppoq soqolli, "ulug'" ko'rinishda tasvirlaydi. Lekin bu tashqi ko'rinish ichki chirkinlikni yashira olmaydi.

Qor ramzi asardagi ikkinchi ulkan ramzdir. Cho'lpon qor orqali eski jamiyatdagi jaholat, diniy niqobdagi zulmni aks ettiradi. Shaxsiy mulohazalarga tayanadigan bo'lsak, Samardar savdogar Sharofatning otasi eshonga boshqalar kabi hadya berishni istaydi ammo uning ko'zga ko'rinuvchi buyumi yo'q. Voqealar rivojida esa bu holat o'zgaradi. Eshonning elchilari savdogarnikiga sovchilikka kelishi tugunga aylanadi. O'zbek xalq mentalitetida oila boshi - ota.

Yosh qizning taqdiri ham shu otasi qo'lida edi. "*Bitta qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizga tutdik, sadag'alari ketsun!*" degil! - dedi. Qumribush kutilmagan bu gapdan oqardi, ko'kardi, suvratdek qotib devorga suyalib qoldi...

Asar so'nggida Mamat qorovulning aytganlari:

- *Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o'zi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yog'di!*— dedi.

"Lolaning ustiga qor yog'di..." jumlasini oddiy tabiat tasviri emas. Bu bir qizning baxti ko'milgani, yoshlik ezilgani, jamiyatning begunoh insonni qurbon qilgani haqidagi fojiaiy hukmdir. Bu jumlada Cho'lpon butun hikoyaning falsafasini bir satrga joylashtirgan.[4]

Abdulhamid Cho'lponning "Oydin kechalarda" hikoyasida ramziy tasvirlar muhim o'rin egallaydi. Adib oddiy voqealarni tasvirlash bilan cheklanmay, turli ramzlar orqali qahramonlarning ruhiy holatini va jamiyat muammolarini chuqurroq ochib beradi. Hikoyadagi oydin kecha, tun, yig'i va sukunat kabi obrazlar ma'lum ma'nolarni ifodalaydi.

Hikoyadagi eng asosiy ramz "oydin kecha" ramzidir. Odatda oydin kecha go'zallik, sokinlik va orom ramzi hisoblanadi.

Ammo asarda bu manzara yosh kelinning iztiroblari bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Shu sababli oydin kecha tashqi go'zallik bilan inson qalbidagi og'riq o'rtasidagi ziddiyatni anglatadi.

Tabiat go'zal va sokin bo'lsa-da, kelinning qalbi iztirobga to'la.

Bu ramz insonning ichki dunyosi tashqi muhitdan butunlay boshqacha bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tun ham ramziy ma'noga ega. Tun hikoyada yolg'izlik, g'am va umidsizlik timsoli sifatida beriladi. Kelinning aynan tunlari yig'lashi uning dardi yanada kuchli ekanini bildiradi.

Tun inson qalbidagi yashirin azoblarni yuzaga chiqaruvchi ramz sifatida xizmat qiladi.

Hikoyadagi yig'i ham oddiy holat emas. Bu yig'i ayolning butun taqdiri, armoni va ichki noroziligini ifodalaydi. Kelinning ko'z yoshlari o'sha davrdagi ko'plab ayollar hayotining ramziy ifodasidir.

Cho'lpon shu orqali jamiyatdagi ayollar dardini umumlashtiradi.

Qodirjon obrazi ham ma'lum ma'noda ramziy xarakterga ega. U oilaviy mas'uliyatni his qilmaydigan, ma'naviy jihatdan zaif insonlarning timsolidir. Uning ichkilikka berilishi jamiyatdagi illatlarning ramzi sifatida tasvirlanadi. Adib bu obraz orqali oilani yemiruvchi illatlarni tanqid qiladi. Zaynab kampir esa mehr va insoniylikning uyg'onishini ifodalovchi ramziy obrazdir. Dastlab u qattiqqo'l va sovuq munosabatda bo'ladi, keyinchalik esa kelinning dardini tushunadi. Bu holat inson qalbida rahm-shafqat har doim uyg'onishi mumkinligini anglatadi. Hikoya nomi "Oydin kechalar" bo'lsa-da undagi insonlar hayoti oydin kechalarda o'tmadi. Voqealar rivojida taxminlar "Balki qo'shnining uyidan chiqayotgandir"- deyilgan gumonlari o'sha paytdagi boshqa bir oilalarda ham "oydin kechalar" bo'lganligi ko'rsatib beradi. Qisqa qilib aytganda, "Oydin kechalarda" hikoyasidagi ramziy obrazlar asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi. Cho'lpon tabiat, tun va inson ruhiyatini uyg'unlashtirib, hayotiy haqiqatlarni ta'sirchan tarzda ifodalagan. Shu sababli hikoya nafaqat voqealari, balki chuqur ramziy ma'nolari bilan ham qimmatli hisoblanadi.

Metodologiya: Ushbu tadqiqotda Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ramziylikning badiiy-funksional xususiyatlari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy adabiyotshunoslikdagi strukturaviy, semantik va tahlil usullari tashkil etdi. Hikoyalar tahlil asosida o'rganilib vositalarning, obrazlarning, shuningdek, ramzlar ma'nolari oydinlashtirildi. Tadqiqot jarayonida ramzlarning kontekstual ma'nosi va ularning qahramon ruhiyati bilan bog'liqligi germeneytik metod orqali sharhlandi. Tadqiqotda ilmiylik, xolislik va tamoyillariga amal qilinib, nazariy qarashlar hamda ilmiy manbalardan foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuv Cho'lpon hikoyalarida ramziylikning poetik mohiyatini chuqurroq anglash va uning o'zbek adabiyotidagi badiiy-estetik ahamiyatini yoritishga xizmat qildi.

Muhokama va natija: Cho'lpon hikoyalari tahlil qilish jarayonida bir biriga o'xshash ikki hikoya olindi. Abdulhamid Cho'lponning "Qor qo'ynida lola" hikoyasi yuzasidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, asarda inson ruhiyati, ayol taqdiri hamda jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik masalalari chuqur badiiy talqin etilgan. Muhokama jarayonida ayniqsa Sharofat obrazi markaziy o'rinda turadi. Muallif uning iztirobli hayoti orqali o'sha davr ayollarining erksiz va fojeali qismatini ochib beradi. Sharofatning ichki kechinmalari, orzu-intilishlari va ruhiy iztiroblari kitobxonda achinish va hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi.

Asarda qo'llangan ramziy tasvirlar ham muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Lola" poklik, go'zallik va umid ramzi sifatida talqin qilinsa, "qor" sovuq muhit, jaholat va zulm timsolini anglatadi.

Shu orqali Cho'lpon murakkab ijtimoiy muammolarni tabiat manzaralari bilan uyg'unlashtirib tasvirlaydi. Muhokamalarda Cho'lponning psixologik tasvir mahorati alohida e'tirof etiladi. Yozuvchi qahramonlarning tashqi harakatidan ko'ra ularning ichki olamini ochishga ko'proq e'tibor qaratgan. Natijada hikoyada inson qalbidagi qo'rquv, umidsizlik, muhabbat va ozodlikka intilish tuyg'ulari tabiiy aks ettirilgan. Shuningdek, hikoyada eski qarashlar va mutaassib muhit tanqid qilinadi. Eshon kabi obrazlar orqali jamiyatdagi jaholat va inson erkinligini cheklovchi kuchlar fosh etiladi. Muallif ilg'or fikr va ma'rifat tarafdori sifatida inson qadri hamda erkinligini ulug'laydi.

Xulosa: "Qor qo'ynida lola" hikoyasi nafaqat badiiy jihatdan, balki g'oyaviy mazmuni bilan ham o'zbek nasrining muhim namunalaridan biridir. Asarda ilgari g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

"Oydin kechalarda" hikoyasida esa oydin kecha ramziy ma'noda inson qalbidagi orzu va armonlarni ifodalaydi. Asardagi sukunat va tabiat tasvirlari qahramonning ichki kechinmalarini yanada ta'sirchan ochib beradi. Cho'lpon ramzlardan foydalanish orqali voqealarni bevosita emas, balki badiiy-estetik yo'sinda yoritadi. Bu esa kitobxonni mushohada qilishga undaydi hamda asarning ta'sir kuchini oshiradi.

Adib hikoyalaridagi ramziylik jadid adabiyotining asosiy g'oyalari bilan hamohangdir.

Unda milliy uyg'onish, erk, ma'rifat va inson qadri kabi tushunchalar majoziy obrazlar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan Cho'lpon hikoyalari nafaqat badiiy, balki ma'naviy-estetik ahamiyatga ham ega bo'lib, o'zbek nasrida ramziy tasvirning yuksak namunasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://journalss.org/index.php/tal/article/download/27005/26057>
2. Cho'lpon "Adabiyot nadir" Toshkent
3. <http://journalss.org/index.php/conf/article/view/12355>
4. <http://journalss.org/index.php/tal/article/download/27005/26057>